



ABDULLA ORIPOV IJODINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Dilorom
Nosir qizi

O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-bosqich magistranti
abdullayevadilorom95@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyot darslarida Abdulla Oripov ijodini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning zarurati, usullari va samaradorligi haqida so'z boradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularning tafakkurini, nutqini, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Maqolada zamonaviy dars metodikasi, muammoli ta'lim, "aqliy hujum", "intervyu", "men rassomman" (noan'anaviy usuli), "maqsadlar xaritasi", "tarozi" kabi metodlarning amaliy qo'llanilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar adabiyot, interfaol metod, ijodiy fikrlash, muammoli ta'lim, "aqliy hujum", "intervyu", "men rassomman", "maqsadlar xaritasi", "tarozi"

Аннотация: В статье рассматриваются необходимость, методы и эффективность использования интерактивных методов в преподавании произведений Абдуллы Орипова на уроках литературы. Интерактивные методы делают учащихся активными участниками учебного процесса, развивают их мышление, речь и творческий потенциал. В статье рассматривается практическое применение современных методов обучения: проблемного обучения, «мозгового штурма», «интервью», «Я – художник» (нетрадиционный метод), «карты целей», «весов».

Ключевые слова: литература, интерактивный метод, творческое мышление, проблемное обучение, «мозгового штурма», «интервью», «Я – художник», «карты целей», «весов».

Annotation: This article discusses the necessity, methods and effectiveness of using interactive methods in teaching Abdulla Oripov's work in literature lessons. Interactive methods make students active participants in the lesson process, develop their thinking, speech, and creative potential. The article covers the practical application of modern teaching methods, problem-based learning, "brainstorming", "interview", "I am an artist" (non-traditional method), "goal map", "scales".

Keywords: literature, interactive method, creative thinking, problem-based learning, "brainstorming", "interview", "I am an artist", "goal map", "scales"

Kirish

Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi — o'quvchini darsda faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatishdir. Ayniqsa, adabiyot fanida bu metodlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki adabiyot – bu so'z san'ati, fikr va tuyg'ularni tarbiyalovchi fanga aylangan. Interfaol metodlar aynan shu jihatdan juda muhim bo'lib, ular darsning bir yoqlama emas, ikki tomonlama muloqot tarzida o'tishini ta'minlaydi.

Zamonaviy o'quvchilarga, albatta, zamonaviy yondashgan holatda dars o'tish lozim. Shu jumladan, maktabda adabiyot darsliklarida O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Oripov ijodini o'qitishga mo'ljallangan mavzular keltirilgan. Adabiyot fani o'qituvchi bu mavzularni o'quvchilarga ham qiziqarli ha tushunarli tilda o'qitishi o'quvchilarning mavzuga qiziqishi orttirib, tushunishni oshiradi.

Asosiy qism

Abdulla Oripov ijodi 5-sinf adabiyot kitobida ham keltirilgan bo'lib, yozuvchining qisqacha tarjimai holi, uning "Qushcha", "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "Miltiraydi mitti yulduz", "Burgut" va "Tilla baliqcha" kabi she'rlari berilgan. 5-sinf o'quvchilarini yosh jihatidan psixologiyasini inobatga olsak, ularga murakkab bo'lmagan lekin hozirdan erkin fikrlashni, to'g'ri fikrlashni o'rgatadigan metodikalarni tanlash juda muhim.

Adabiyot darslarida keng qo'llanilayotgan interfaol metodlarga quyidagilar kiradi:

1. **Klaster (tarmoq) metodi** – bir obraz, g'oya yoki hodisa bilan bog'liq tushunchalarni tarmoq tarzida yozib chiqish, bu orqali mavzuni chuqur o'rganish.

2. **Debat (bahs-munozara)** – ikki tomonlama bahs asosida muammoning turli jihatlarini o'rganish. Bu metod adabiy obrazlar va asar g'oyalarini taqqoslashda muhimdir.

3. **Rolli o'yinlar** – adabiy obrazlarni jonlantirish, ularning o'rniga kirib harakat qilish orqali o'quvchilarda empatiya, nutq madaniyati va obrazga nisbatan munosabat shakllanadi.

4. **"Insert" texnologiyasi** – o'quvchilar matn bilan ishlayotganda o'z belgilarini qo'yib boradi: yangi ma'lumot, tanish axborot, savol tug'dirgan joy va boshqalar.

Adib Abdulla Oripov ijodini ham shu kabi bir nechta metodikalar orqali darsni tashkil etish mumkin.

Masalan, yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatishda jadval yoki klaster metodidan foydalanish mumkin.

Bu usul qisqa ammo, tez eslab qolishga yordam beradi.

1 - "Aqliy hujum" - metodi o'quvchilarning mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishini rag'batlantiradi. Uning yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Namuna: *“Biz Turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issig‘ cho‘larini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”¹*

Yuqorida berilgan fikrni o‘z shaxsiy fikringiz bilan asoslang. O‘ylab ko‘ringchi, nima uchun ota-bobolarimiz yurt tuprog‘ini ko‘zlariga surtganlar? Ona tuproq, vatan tuprog‘i jumalari sizga nimani anglatadi?

2 - “Intervyu” - metodi o‘quvchilarning bir birlari bilan axborot almashishlariga, ayniqsa jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi?

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh vakili doskaga chiqib, ikkinchi guruh ishtirokchilaridan istagan biriga savol beradi. To‘liq javob berilganidan so‘ng, javob bergan ikkinchi guruh vakili boshqa guruh a‘zosidan xohlagan biriga o‘z savolini beradi. O‘yin shu tariqa davom etadi. Zanjir uzilmasligi lozim.

Foydalanish uchun savollar.

1. Siz o‘z vatanningizni nima uchun sevasiz?
2. Vatan deganda xayolingizga eng birinchi nima yoki kim keladi?
3. “Oila – kichik vatan”. Bu fikrga munosabatingiz.
4. Sizning bu vatanga qo‘shadigan hissangiz ayni damda nimalardan iborat?
5. To‘tiyo nima degani?
6. Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she‘ridan nimani tushundingiz?
7. Ona xalq deganda nimani tushunasiz?
8. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!
Misralaridan nimani tushundingiz?
9. Sizga vatan suratini chizib ber desa, nimani chizgan bo‘lar edingiz?
10. Umr bo‘yi Vatan sog‘inchi bilan yashash sizningcha, qanday his? Bunday buyuk ajdodlarimizdan kimlarni taniysiz?

3 - “Men rassomman” (noan‘anaviy interaktiv metodi)

Ushbu metod esa o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, tasavvur olamini kengaytirishga ham yordam beradi.

Abdulla Oripovning “ Miltiraydi mitti yulduz” nomli she‘rini diqqat bilan o‘qing. Topshiriq:

1) Barcha o‘quvchilarga A4 qog‘oz tarqatiladi. She‘r asosida yulduz rasmini chizish so‘raladi.

2) Har bir o‘quvchi o‘zi chizgan suratni sharhlab berishi lozim. Yulduz nima uchun yolg‘iz? Nega aynan bu ranlarni tanladingiz? Yulduzning ruhiy kechinmalarini ifodalab bering.

4 - **“Maqsadlar xaritasi” metodi** o‘quvchilarning kelajak haqida o‘ylarini tartibga solishda, to‘siqlarni yengib, yangi marralarni zabt etishga ishtiyoqlarini oshiradi. Ayniqsa, o‘quvchilar jamoa oldida o‘z orzularini aytishni yaxshi ko‘rishlarini inobatga olsak, bu metod darsni yana qiziqarli bo‘lishiga turtki beradi.

¹ A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”

Abdulla Oripovning “Burgut” she’ri asosida

–“Siz burgut emassiz, lekin sizda ham kuchli qanot — orzuvingiz bor.

– O‘zingizning cho‘qqingizga qanday yo‘l bilan yetasiz?”

Ular o‘z maqsadlarini yozadilar va unga yetish uchun 3 bosqichli xarita chizadilar.

Maqsad – to‘siqlar – yo‘llar – harakatlar.

5 - **“Tarozi” metodi** tanqidiy fikrlash uchun eng zo‘r uslub. Bu metodni deyarli hamma mavzuga moslashtirib darslarda faol qo‘llash mumkin.

Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri asosida

Topshiriq: “Tor hovuz” va “Keng ummon” ushbu ikki elementlarni o‘zaro taqqoslang. Inson salohiyati, erkinlik, dunyoni idork etish tushunchalarini shaxsiy fikringiz bilan asoslang.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu kabi metodik texnologiyalar o‘quvchilarning savosxonligini oshirishga, DTS talablariga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalarni oson egallashga yordam beradi.

Yuqoridan keltirilgan metod va tavsiyalarni qay uslubda foydalanish bu har bir o‘qituvchining individual salohiyatiga, va albatta, har bir sinfning yosh va fiziologik xususiyatlariga qarab tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A. Muslimov, M. Usmonboeva, M. Mirsoliyeva — Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik —O‘UM Toshkent -2016 5. O.U.
2.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta‘lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017. 6. G`ulomova M.X., Sobirova 3.N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta`lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o`quv jarayonida(tezislar to`plami). -T. 2009

4.5-sinf adabiyot darsligi. Toshkebt - 2024